

Raqamli texnologiyalar vazirligida bo'sh ish o'rini, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi

MA'LUMOT

T/r	Bo'sh ish o'rinlari soni	Ishga qabul qilish shartlari	Nomzodlarga qo'yiladigan talablar	Taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar
1	2	4	5	6
Raqamli ta'limni rivojlantirish boshqarmasi Boshqarma boshlig'i				
1.	1	1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim, iqtisod va moliya yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi (magistraturani, doktoranturani bitirgan shaxslarga afzallik beriladi. Shu bilan birga xorij OTMlarda ta'lim olganlarga ustunlik beriladi); 2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi va ta'lim yo'nalishida 5 yillik, shundan, 2 yillik rahbarlik lavozimida mehnat stajiga ega bo'lishi; 3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, ta'lim, raqamli ta'lim va raqamli texnologiyalar sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqilishiga oid amaldagi qonunchilik hujjatlarini mukammal bilishi.	1. Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, ular bilan ishlash tajribasiga va salohiyatiga ega bo'lishi; 2. Davlat tilini mukammal bilishi; 6) rus va ingliz tillarida ish yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi (xorijiy tillarni bilishi bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lish ustunlik beradi); 3. Kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi; 4. Davlat xizmatchisi sifatida odob-axloq va etika qoidalari talablarini bilishi, sohaga oid muzokaralarni yuritish, yozma va og'zaki nutq madaniyatiga ega bo'lishi; 5. Rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi; 6. Raqamli texnologiyalar va kommunikasiyalari sohasini rivojlantirish yo'nalishida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar mohiyatini chuqur anglashi.	

Raqamli texnologiyalar sohasida startaplar ekotizimini rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi

2.	2	1 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, iqtisod va moliya yo'nalishlaridan biri bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi (magistraturani, bitirgan shaxslarga afzallik beriladi). Shu bilan birga xorijda yoki O'zbekistondagi xorijiy OTMlarda ta'lim olganlarga ham ustunlik beriladi); 2 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, iqtisodiyot va moliya sohalarida 5 yillik, shundan, 3 yillik iqtisodiyot va moliya yo'nalishida mehnat stajiga ega bo'lishi; 3 Raqamli iqtisodiyot, startaplar va sun'iy intellekt texnologiyalarni joriy etishga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik hujjatlarini bilishi;	1. normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, EDO ijro intizomi idoralaro tizimi bilan ishlash tajribasiga va salohiyatiga ega bo'lishi; 2. davlat tilini mukammal bilishi, ingliz va rus tillarida ish yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarga afzallik beriladi; 3. kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi; 4. davlat xizmatchisi sifatida odob-axloq va etika qoidalari talablarini bilishi; 5. rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi hamda ijro intizomi bo'yicha oxirgi bir yil ichida intizomiy jazoga tortilmagan bo'lishi; 6. ijro intizomi bo'yicha oxirgi bir yil ichida intizomiy jazoga tortilmagan bo'lishi; 7. axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish hamda raqamlashtirish yo'nalishida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar mohiyatini chuqur anglashi.	
----	---	---	--	--

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va metodologiyasi boshqarmasi bosh mutaxassisi

		1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, matematika, muhandislik, ijtimoiy fanlar, ta'lim metodikasi, iqtisodiyot yo'nalishlaridan biri bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi (magistraturani, doktoranturani bitirgan shaxslarga afzallik beriladi. Shu bilan birga xorijda yoki O'zbekistondagi xorijiy OTMlarda ta'lim olganlarga ham ustunlik beriladi); 2. Korxona va kompaniyalarda AKT sohasida 3 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi (qo'shni yo'nalishlarda – loyihalarni boshqarish, texnik hujjatlarni ishlab chiqish (texnik topshiriqlar, TIA (Texnik-iqtisodiy asoslash), standartlar, reglamentlar va boshqalar); 3. Ish yuritish asoslarini bilish (turli vakolatli organlar va xalqaro tashkilotlar bilan yozishmalar olib borish uchun); 4. Normativ-huquqiy hujjatlar haqida bilimga ega bo'lish (ierarxiya, ishlab chiqish, kelishish va e'lon qilish jarayonlari); 5. Davlat tilini mukammal bilishi; 6. Rus va ingliz tillarida ish yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarga afzallik beriladi.	1. Texnik ko'nikmalar (mavjudligi ustunlik beradi): Chuqur o'rganish, neyron tarmoqlar va boshqa zamonaviy AI texnologiyalari tamoyillari va usullarini bilish. Bulut platformalarini bilish (AWS, Google Cloud, Azure). Analitik ko'nikmalar: Murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati; 2. Kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi; sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha loyihalarni hayot siklini boshqarish ko'nikmasining mavjudligi. Masalalarni hal qilishda ijodiy yondashuv va noan'anaviy fikrlash. Ko'p vazifalarni bajarish va cheklangan muddatlarda ishlash qobiliyati. Professional sertifikatlar (mavjudligi ustunlik beradi): SI va "machine learning" bo'yicha sertifikatlar, masalan, Google Cloud Professional Machine Learning Engineer, AWS Certified Machine Learning - Specialty va boshqalar; 3. Qo'shimcha talablar: Davlat xizmatchisi sifatida odob-axloq va etika qoidalari talablarini bilishi. Rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi hamda ijro intizomi bo'yicha oxirgi bir yil ichida intizomiy jazoga tortilmagan bo'lishi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish hamda raqamlashtirish yo'nalishida mamlakatda olib	
--	--	--	--	--

			borilayotgan islohotlar mohiyatini chuqur anglashi; 4. Loyiha va jamoa boshqaruvi vositalari bilan ishlash tajribasi (JIRA, Confluence va boshqalar). Ommaviy chiqishlar va muzokaralar o‘tkazish ko‘nikmalari. Texnik hujjatlar va ilmiy maqolalar yozish tajribasi afzallik hisoblanadi; 5. Rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi hamda ijro intizomi bo‘yicha oxirgi bir yil ichida intizomiy jazoga tortilmagan bo‘lishi; 6. Davlat organlarida raqamlashtirish va sun’iy intellekt holatini bilishi.	
--	--	--	---	--